



ISSN: 3060-4613



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,  
5-iyun, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lif universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarkand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rindosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
Xasanboy U. Abdusamatov	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili .....	26
Jalilov Nodirjon Azamatovich	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
G'ayibova Nargiza Anorbayevna	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari .....	33
Hakimova Gulmira To'xtatoshevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri .....	41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников .....	44
Умрихина Виктория Игоревна	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода .....	52
Ахунова Умида Ойбековна	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni .....	55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich	
Inklyuziv ta'lim sharoitiда imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va matabning roli .....	63
Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход .....	67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
O'yinning bola faoliyatasi sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
Otasheva Lola Shoto'rayevna	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari .....	78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Guishoda Maxmudjonovna	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'larning o'rni .....	81
B. Xusniddinova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish .....	85
Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi .....	89
Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna	
Methodology of Teaching English to Preschool Children .....	96
Khurshida Tojmurodova	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyatি..	100
Ch. B. Nalibayeva	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari .....	103
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni .....	106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna	



Raqamlı ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o‘rgatishning didaktik asoslari .....	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o‘g‘li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners’ Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O‘smirlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar .....	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Kolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o‘qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari .....	123
Jo‘rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish .....	126
Muxlisat Satridinovna Muhiddinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi .....	132
Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o‘g‘li	
Bo‘lajak o‘qituvchilarni ruhlantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari.....	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiylar kamchiliklarni kamaytirishda o‘yinlarning o‘rni.....	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o‘rgatishdagi didaktik ahamiyati .....	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta’lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruving qiyosiy tahlillari .....	150
Uzaqov Nomozali Hamdamovich	
Zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo‘llari .....	153
Z. M. Zarifova	

# TTJLARDAGI QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH, MAVJUD IJTIMOIY-AXLOQIY MUAMMOLARNI HAL ETISH BO'YICHA ILG'OR XORIJY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'RGANISH

Xasanboy U. Abdusamatov

DSc, professor, Psixologiya va pedagogika kafedrasи mudiri,  
ISFT, Toshkent, 100140, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Xalqaro talabalar, ayniqsa bakalavriat bosqichidagi qizlar uchun madaniy muhitga moslashish jarayoni va talabalar turar joyida yashash tajribasini o'rganish – bugungi kunda oliv ta'lim sohasidagi dolzARB yo'naliShlardan biridir. Yangi mamlakatga ko'chib o'tish va talabalarga mo'ljallangan turar joylarda yashash ko'plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, ayniqsa xalqaro bakalavriat bosqichidagi ayol talabalar uchun bu jarayon yanada murakkab kechadi. Afsuski, ilmiy adabiyotlarda yangi talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab strategiyalar eskirgan yoki xalqaro ayol talabalar ehtiyojlariiga moslashtirilmagan. Shu bois, TTJ (talabalar turar joyi) mutaxassislari uchun ushbu masalani chuqr o'rganish zarurati mavjud.

**Kalit so'zlar:** xalqaro talabalar, turar joy tajribasi, ayol talabalar, madaniy moslashuv, qo'llab-quvvatlash strategiyalari.

**Abstract:** The cultural adaptation process of international students—particularly undergraduate women—and their residential experiences in student housing has become a critical focus in contemporary higher education. The transition to living in campus housing in a foreign country often involves numerous challenges, especially for international undergraduate women who face unique circumstances. Unfortunately, many existing support strategies found in academic literature are outdated or not tailored to the specific needs of international undergraduate women. Therefore, for residence life professionals, gaining a comprehensive understanding of this issue is essential.

**Key words:** international students, residential experience, female students, cultural adaptation, support strategies.

**Аннотация:** Изучение процесса культурной адаптации иностранных студентов, особенно студенток бакалавриата, а также их опыта проживания в студенческих общежитиях и стратегий поддержки – является актуальной темой современного высшего образования. Переезд в другую страну и адаптация к жизни в студенческом кампусе сопровождаются множеством трудностей, особенно для иностранных студенток, сталкивающихся с уникальными вызовами. Однако большинство существующих в научной литературе стратегий поддержки новых студентов устарели и не адаптированы к нуждам иностранных студенток бакалавриата. В этой связи специалистам по работе в студенческих общежитиях необходимо всестороннее изучение данной проблематики.

**Ключевые слова:** иностранные студенты, опыт проживания, студентки, культурная адаптация, стратегии поддержки.

## KIRISH

Ijtimoiy jihatdan nochor shaxslar ko'plab resurslardan – ish o'rirlari, ta'lim, axborot, mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan cheklangan bo'lishadi. Xalqaro migratsiya tufayli do'stlik aloqalaridan va ayrim hollarda oilaviy qo'llab-quvvatlashdan ajralgan immigrant va qochqin yoshlarga nisbatan tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. AQShning Yuta shtatiga yaqinda ko'chib kelgan yoki immigratsiya qilgan talabalar ishtirokida olib borilgan tadqiqotda do'st orttirishdagi maktab darajasi va mahalliy omillarning ahamiyati, shuningdek do'stlik shakllanishini chekllovchi siyosiy kontekstdagi to'siqlar tahlili qilingan. Yakuniy xulosalarga ko'ra, ijtimoiy jihatdan ajratilgan guruhlar bilan ishlashda tengdoshlar va muassasalarning kompleks qo'llab-quvvatlovi zarur ekani aniqlangan.

Yangi kelgan xalqaro talabalar uchun oilaviy va do'stona ko'rinishdagi ijtimoiy munosabatlari – ikki madaniyatlari ijtimoiylashuvga bosqichma-bosqich o'tishda muhim omil hisoblanadi. Biroq, ayniqsa qochqin bolalar uchun

bu jarayon murakkab kechadi. Ular oila va etnik hamjamiyatga moslashish, tarjimonlar bilan muloqot, maktabga integratsiyalashuv, geografik o'zgarish, vaqt mintaqalari va til o'zgarishlariga duch kelishadi. Tengdoshlar bu jarayonda yo'l ko'rsatish rolini bajaradi, biroq maktabga asoslangan yoki kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan do'stlik shakllanishi bo'yicha yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Natijada yosh migrantlar orasida do'stlik tarmoqlari irqiy ajratilgan, asosan maktab doirasida shakllanadigan guruhal shaklida namoyon bo'ladi.

Barqaror ikki madaniyatli ijtimoiy shaxsiyatni shakllantirishdan tashqari, maktab doirasidagi ijtimoiy tashabbuslar ham bu talabalarni jamiyatga muvaffaqiyatlari integratsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bunday tashabbuslar etnik ajratishni bartaraf etish, o'zini maktabga tegishli his qilish va akademik yutuqlarga erishishda yordam berishni maqsad qiladi. Biroq, maktabning salbiy tajribalarning do'stlik shakllanishiga ta'sirini yumshatish borasidagi choralar hali yetaricha o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur maqolada muhokama qilinayotgan ijtimoiy guruh va amaliy tashabbuslarni kengaytirish, hamda kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi ijtimoiy munosabatlar shakllanishiga oid ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati asoslanadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda xalqaro talabalar, ayniqsa ayollar uchun talabalar turar joyidagi ijtimoiy, madaniy va psixologik muhit muhim ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Chong va Razek o'z izlanishlarida Xitoylik ayol talabalar uchun yotoqxona faqat yashash joyi emas, balki madaniy moslashuv, do'stlik va xavfsizlik tajribasining markazi ekanligini ko'rsatadi. Montgomery tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa xalqaro bakalavr ayollar talabalarining o'zini begona his qilishi va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetishmasligi ta'kidlangan. Tolman esa talabalar orasida xonadoshlarni juftlash dasturining ijtimoiy moslashuv va o'qishdagি muvaffaqiyatga sezilarli ta'sirini aniqlagan.

Worsley, Schafer va Sirin olib borgan tadqiqotlar yotoqxona sharoitlarining talabalar ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir qilishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yangi muhitga ko'nkishda yuzaga keladigan stress, xavfsizlikka oid xavotirlar, madaniy yakkalanish va psixologik bosimlar talaba qizlarda depressiya, xavotir va ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin. Shape va Le o'z ishlanmalarida ayol talabalar yotoqxonasida xavfsizlik siyosatlari, jinsiy bezorilikdan himoya va ijtimoiy identifikatsiya muammolarini chuqr tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar xalqaro ayol talabalar uchun moslashtirilgan yotoqxona siyosatlari zarurligini asoslaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turar joyda yashovchi qiz talabalarini qo'llab-quvvatlash siyosatini tahlil qilishda ularning shaxsiy ijtimoiy fonini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu fon mavjud muammolarni aniqlash hamda turli yo'nalishlarda ularni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqishda samarali asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fon uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- Birinchidan, chet elda tahsil olayotgan ayol talabalar haqidagi umumiylar – ularning soni, psixologik va ijtimoiy muammolari, yotoqxona bilan bog'liq qiyinchiliklar hamda yotoqxonaning rivojlanishidagi o'rni yoritiladi.
- Ikkinci yo'nalishda turli davlatlardagi talabalar yotoqxonalari holati umumiylar tarzda tahlil qilinadi va mavjud muammolarga nisbatan choralar ko'rib chiqiladi.
- Uchinchi yo'nalishda esa ayol talabalar o'zlarini ishonchli va farovon his qiladigan yotoqxona muhitini yaratishga qaratilgan ilg'or xalqaro tajribalar o'rganiladi.

So'nggi yillarda chet elda tahsil olish istagidagi talabalar soni ortib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich ayol talabalar ulushining izchil oshib borayotganini tasdiqlaydi. Mazkur maqola, asosan, ushbu demografik guruh – ayol talabalarini o'rganishga qaratilgan. Xitoya xorijda o'qiyotgan talabalar orasida ayollar soni erkaklarga nisbatan yuqori. Ularning soni har yili oshib borayotgani esa xorijda o'qish uchun ajratilayotgan mablag'larning ham ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Chet elda tahsil olish ilmiy salohiyatni oshirish bilan birga, yuqori reytingli universitetlarga qabul bo'lgan talabalar orasida raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Biroq, ayol talabalar ko'pincha o'qishga ketish qarorida oilaviy ta'sir va maktabdagi akademik yutuqlarga tayanuvchanlik asosida harakat qilishadi. Bu holat esa ayrim psixologik va shaxsiy xarakterdagi qiyinchiliklarning shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa o'smirlik davrida bunday muhitda shakllanayotgan xarakter muammolari tabiiy hol sifatida ko'rildi.

Oilaviy tarbiya ayollar shaxsiyati shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, pedagoglar tomonidan qizlarning oilaviy tasavvurlarini shakllantirish va ijtimoiy mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv zarur. Shuningdek, reklamalarda ishlatiladigan maskulin (erkakcha) elementlar talaba qizlarning ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayol talabalar ko'pincha murakkab ijtimoiy vaziyatlarga duch kelishi – ayniqsa, ularning jinsi ochiq ko'rsatilgan holatlarda, o'zlarini noqulay his qilish holatlari qayd etiladi.



Masalan, chet eldag'i kampuslarda tahlil olayotgan talaba ayollar jinsiy zo'ravonlik xavfi ostida bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada ayol talabalarni o'zlarini ishonchli va farovon his qiladigan yotoqxona muhiti bilan ta'minlashga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyalarini o'rganish va tahlil qilish maqsad qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalar turar joyida yashovchi qizlar duch keladigan ijtimoiy-axloqiy muammolar Ushbu bo'lim yotoqxonalarda yashovchi talaba qizlar duch keladigan ijtimoiy-axloqiy muammolarni yoritishga qaratilgan. Ayollarga oid yotoqxona muhiti bilan bog'liq adabiyotlar, xususan Chong va Razek tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, shaxsiy va sog'liq bilan bog'liq stress omillari, kamsitilish hissi, madaniy moslashuvdagi qiyinchiliklar hamda boshqa salbiy omillar talaba qizlarning yotoqxona ichida va undan tashqaridagi holatiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniq ifodalangan. Akademik muhitlar ko'pincha sog'liq va xavf bilan bog'liq turli masalalarga boy bo'lib, talabalar doimiy ravishda akademik bosim ostida bo'ladilar. Talaba qizlar esa tana qiyofasi, o'ziga past baho berish kabi muammolarga duch kelib, natijada o'ziga zarar yetkazish yoki o'z joniga qasd qilish holatlari haqida fikrashga moyillik bildirishi mumkin.

Yuqoridagi omillarga qo'shimcha ravishda, o'zini boshqarishning samarasiz strategiyalari, akademik chalkashliklar va salbiy yashash sharoitlari yotoqxona bilan bog'liq stress darajasini kuchaytiradi. Akademik yuklama va sog'liqka doir xavotirlar ayol talabalar kundalik hayotida ruhiy iztiroblarning kuchayishiga olib keladi. Xalqaro talabalar orasida 40 foizdan ortig'i kamsitilish holatlarni boshdan kechirganini bildirgan. Bu kamsitilishlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib, ayrimlarda salbiy psixologik holatlarni yuzaga keltirgan bo'lsa, boshqalarda chidamlilik (rezilientlik) hissini mustahkamlagan. Masalan, Xitoy, Janubiy Koreya va Meksikadan kelgan talabalar Irlandiya yoki Buyuk Britaniyadagi tengdoshlariga nisbatan ijtimoiy jihatdan destruktiv xatti-harakatlarga ko'proq moyillik bildirgan. Ba'zi talabalar esa ijtimoiyashuv uslublarini va kundalik turmush tarzini o'zgartirishga majbur bo'lgan. Shuningdek, xalqaro miqyosdagi siyosiy voqealar va milliy qarorlar makro muhitda noaniqlik manbai bo'lib, talabalar orasida tushkunlik va xavotirni oshirgan. Bu omillar bevosita yotoqxona kontekstiga taalluqli bo'Imasa-da, vatanidagi muammolar haqidagi fikrlar ularning ruhiy salomatligi va yashash sharoitlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

### Ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar

Talabalar yotoqxonaga ko'chib o'tishni tabiiy jarayon deb qabul qilsalar-da, ushbu o'tish davrining so'nggi oylarida stress darajasi sezilarli darajada ortadi. O'qishga jo'nash, oila bag'rini tark etish va yangi – ilgari notanish – akademik muhitda bo'lish holati talabada xavotir uyg'otadi. Mustaqillik darajasining oshishi, moliyaviy javobgarlikni boshqarish, kundalik uy yumushlarini bajarish va yashash joyini tartibda saqlash zaruriyatni ko'pchilik talabalar, xususan ayollar uchun qo'rquv manbaiga aylanadi.

Ayniqsa, ayrim xitoylik talabalar xorijda o'qishni ota-onasiz, yakka holda tanlagan. Yetaricha ma'lumot to'planmagani sababli, ko'chishdan oldin ularning ruhiy tayyorgarlik darajasi past bo'lgan. Yangi jamiyat va notanish muhitda ular o'zlarini bosim ostida his qilishlari ehtimoldan xoli emas. Darhaqiqat, yotoqxonaga joylashishdan oldingi davrda kuchli xavotir, hatto og'riqli yo'qotish hissi (grief) yoki depressiv holat vujudga kelishi mumkin. Ko'pchilik uchun yotoqxona hayoti katta hayot sari ilk bosqich bo'lib, bu jarayon ko'plab yangi xavotirlarni keltirib chiqaradi. Bolalik davridagi muhitni tark etib, katta yoshdagilar dunyosiga kirish holati ularning ichki mo'rtligini kuchaytiradi. Bu esa ushbu bosqichga xos xavotir manbalarini ochib beradi.

P. Schafer tomonidan olib borilgan tadqiqot (2016-yil) natijalariga ko'ra, yotoqxona va yashash joyi bilan bog'liq xavotirlar talabalar uchun asosiy tashvish manbasi hisoblanadi. Bu holatlар odatda davlatlar, madaniyatlar, ta'lim tizimlari va ota-onaning mehrli qo'llab-quvvatlovchi muhiti o'rtasida yuzaga keladi. Ota-onalik mehridan ajralish yolg'izlik hissini kuchaytiradi. Yangi xonalar, yotoqxona strukturasing nomalumligi, atrof-muhitdagi noaniqlik va qo'shnilar haqidagi yetarli axborot yo'qligi talabani yolg'iz yashashga majbur etadi. Bu esa ehtiyojkorlik va qo'rquv darajasini oshiradi – o'zgarishlar kutilganidan ham og'irroq bo'lishi mumkinligi haqidagi xavotir kuchayadi. Notanish insonlardan cho'chish holati yuzaga kelishi mumkin. Xavfsizlik va ishonch hissi shakllanmaguncha, bunday xavotirlar va qo'rquv sog'lom va tabiiy holat sifatida qabul qilinadi, garchi ular yoqimsiz bo'lsa ham.

### Xavfsizlik va himoyalanish bilan bog'liq xavotirlar

Xalqaro talabalar bilan ishslashda madaniy farqlarni hisobga olgan holda ko'p madaniyatli va xilma-xil maslahat yondashuvlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. AQShda talabalar yotoqxonalaridagi xavfsizlik haqidagi qarashlar, ayniqsa chet ellik ayol talabalar uchun ishlab chiqilgan xavfsizlik siyosatlari alohida e'tiborni talab qiladi. Seksual zo'ravonlik Amerika jamiyatida keng tarqalgan muammo bo'lib, oliy ta'lim tizimida ham bu masala dolzarbigicha qolmoqda. Bunday holatlар talabalar uchun nafaqat ruhiy jarohat, balki jinoyat-protses-sual organlarga murojaat qilish zarurati sababli katta stress manbai bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lrim muassasalari talabalarning eng og'ir va murakkab hayotiy bosqichlarida ularni qo'llab-quvvatlashi zarur. Biroq feminist nazariya nuqtayi nazaridan qaralganda, kampusda jinsiy zo'ravonlik qurbanib o'lgan talabalar ko'pincha institutlar tomonidan e'tibordan chetda qolishi, rad etilishi yoki sust munosabatga uchrashi mumkin.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – tanlab olingan (tasodifiy bo'Imagan) namunalar asosida kollej talabalarini yotoqxonada o'zlarini qanchalik xavfsiz his qilishlarini aniqlash, hamda ushbu hissiyorotlar sinf bosqichi, jins, jinsiy orientatsiya, irq yoki kampusga yaqinlik kabi omillar bilan bog'liqmi, degan savolga javob topishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, respondentlar yotoqxona ma'muriyatidan xavfsizlikni ta'minlash borasida qanday choralarini kutayotganliklari ham o'rganilgan.

Tadqiqot AQShning o'rta g'arbiy shtatlaridan biridagi kollejda, "Jins va ayollar tadqiqotlari" fanidan dars oluvchi talabalar ishtirokida o'tkazilgan. Sifatli intervyular asosida tuzilgan 42 banddan iborat so'rovnomaga yordamida talabalar kampus xavfsizligi, jinsiy zo'ravonlik, ijtimoiy adolat va demografik tafsilotlar borasida fikr bildirganlar.

Tadqiqot natijalari asosida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy hujjat kollejda mavjud holatni o'rganishda, shuningdek, yotoqxona direktorlariga siyosat, dastur va seminarlar ishlab chiqishda metodik asos sifatida foydalanilishi mumkin. Yotoqxonalar kampus tajribasining ajralmas qismi bo'lib, ular ko'plab talabalar uchun bolalik va kattalik orasidagi ilk mustaqil yashash tajribasini ifodalaydi. Biroq, shaxsiy xonalarni bo'lshish holati xavfsizlik masalalarini kun tartibiga olib chiqadi. Jismoniy zo'ravonlik yoki e'tibordan chetda qoladigan jinsiy bezorilik holatlari oliy ta'lrim tajribasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Agar oliy ta'lrim muassasalari talabalarini xavfsiz, barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishga yo'naltirmoqchi bo'lsa, yotoqxonalarda xavfsiz yashash sharoitlarini ta'minlash muhimdir. Shu sababli, ushbu tadqiqotda yotoqxonalardagi xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratilishi tavsiya etilgan, chunki akademik yutuqlar ko'p hollarda aynan ushbu omil bilan bevosa bog'liqdir.

### **Madaniy va ijtimoiy integratsiya**

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, talaba qizlarning 71,03 foizi yotoqxonani madaniy va ijtimoiy integratsiya makoni sifatida baholagan. Yotoqxonada o'tkaziladigan turli etnik tadbirlar va yig'ilishlar orqali talaba qizlar o'z etnik hamjamiyatlariga bo'lgan mansublik hissini mustahkamlashga intiladilar. Ayniqsa, tilga yaqinlik – ya'ni bir xil til muhitida bo'lish – ijtimoiy integratsiyani rag'batlantiruvchi muhim omillardan biridir.

Madaniy o'xshashlik asosidagi til birligi etnik guruhdagi talabalar orasida o'zaro birdamlik va yaqinlik hissini kuchaytiradi. Shu bois, ko'p madaniyatlari yotoqxonalarda madaniy tafovutlar bilan yuzma-yuz kelgan ayrim talabalar o'z millatiga mansub do'stlik guruhlarini izlay boshlaydilar. Etnik yotoqxonalar ijtimoiy aloqalarni diversifikasiya qilishga xizmat qilishi barobarida universitet doirasida totuv, ko'p madaniyatli muhitni shakllantirishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, ayrim yotoqxonalar ichida madaniy guruhlar faoliyat olib borib, turli etnik madaniyatlar bilan tanishish imkonini yaratadi. Talaba qizlar bunday guruhlarning faol ishtirokchisiga aylanish orqali do'st orttirish, ijtimoiy qabul topish, ommaviy chiqish ko'nikmalarini oshirish va kampus hayotida ijobji tajriba orttirishga intiladilar. Bunday guruhlardagi insoniy ijtimoiy kapital turli "ijtimoiy orollar"ni hosil qilib, tanishuv va muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Madaniy tadbirlar yotoqxonani ijtimoiy integratsiya maydoniga aylantiradi va talaba qizlarning universitet muhitiga moslashuv jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yotoqxonani "hamjamiyat" sifatida qabul qilish hissi shakllanganda, tabassumlar, salomlashuvlar va iliq munosabatlar orqali ko'p madaniyatli talabalar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar kengayadi.

Shu bilan birga, ayrim tadbirlar zarur bo'lsa-da, ularni qo'rquinchli deb qabul qiladigan uyatchan talabalar bu jarayondan chetda qolishlari mumkin. Shu sababli, "yumshoq" (moslashuvchan va majburlovsiz) ijtimoiy lashuv shakllariga ko'proq e'tibor qaratish zaruriyatini ta'kidlanmoqda.

### **Talaba qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro amaliyotlar**

Turli mamlakatlarda yotoqxonalarda istiqomat qilayotgan talaba qizlarning muammolari keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Ushbu bo'limda yotoqxona muhitida yashovchi talaba qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Oliy ta'lrim muassasalarida yotoqxona mas'ullari tomonidan sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratish holatlari, xodimlar ishtiroki, hamkorlik tarmoqlari, moliyalashtirish manbalari va amaliy dasturlar asosida natijalarning samaradorligi baholanadi.

Universitetlar tomonidan talaba qizlarga yo'naltirilgan yotoqxona qo'llab-quvvatlovchi dasturlari boshqa oliy ta'lrim muassasalarida ham joriy etilishi mumkin bo'lgan ilg'or tajribalardir. Madaniy cheklar, ta'lim siyosatidagi gender tengsizlik, diniy dogmalar va patriarchal qadriyatlar natijasida ayrim jamiyatlarda ayollar halihanuz marginal holatda qolmoqda. Yotoqxonalarda yashovchi ayol talabalar ko'pincha erkak talabalar bilan teng sharoitlarga ega emas. Ularning ehtiyoj va muammolari ko'pincha yetarli darajada eshitilmaydi, bu esa teng imkoniyatlar tamoyiliga zid holatni yuzaga keltiradi.

Ayol talabalar uchun fiziologik va psixologik nozikliklarni inobatga olgan holda qo'llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqish muhim. Yotoqxona hayoti – talabalik davrining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, talaba qizlar va ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan aynan shu muhitga bog'liq. Yotoqxona sharoitlarini o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy maydonga aylantirish oly ta'limg siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

### **Hamroh dasturlar va moslashuv**

Tengdoshlikka asoslangan "hamroh tanlash" dasturlari orqali xalqaro talabalar o'zaro madaniy farqlarni tushunadi va ijtimoiy aloqa o'rnatadi. Bu dastur xalqaro talabalarni akademik va ijtimoiy jihatdan muvofiqlashtirishni maqsad qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro ayol talabalar uchun tengdoshlar tomonidan ko'rsatilgan yordam moslashuv jarayonini ancha osonlashtiradi. Yotoqxonadagi madaniyatga asoslangan yashash tajribasi ijtimoiy va akademik integratsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, oly ta'limg muassasalarida xalqaro talabalarni qo'llab-quvvatlovchi model dasturlar yetarli darajada emas. Ayni paytda bu guruh eng tez o'sayotgan toifalardan biri bo'lib, ularning qoniqishi va muvaffaqiyati olyi ta'limg siyosatida alohida e'tiborni talab qiladi.

### **Psixologik maslahat va ruhiy salomatlik**

Sirin va hamkorlarining 2018-yildagi tadqiqotida ayol talabalar orasida tarqalgan hissily muammolar – o'quv maqsadlaridan chalg'ish, ijtimoiy izolyatsiya, vazifalarni bajara olmaslik, do'stlar bilan muammolar va ruhiy charchoq holatlari tahlil qilingan. Talabalar ko'p hollarda oilaviy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lishadi, ammo shunga qaramay, xorijda tahsil olish eng to'g'ri qaror bo'lganini tan olishadi.

Eng ko'p qayd etilgan hissiy holatlar – hazil bilan yashirinib ifodalanadigan stress, uyqusizlik, tartibsiz hayot tarzi va psixologik betartiblikdir. Bu holatlar o'quv yukiga salbiy ta'sir ko'rsatib, talabalarni befarqlik va vahima o'rtaida "tirik qolish" holatiga tushirib qo'yadi. Noma'lumlik – ayniqsa pandemiya sharoitida – xavotirlarni kuchaytiradi. Yangi topshiriqlarga moslashish jarayoni stress manbai bo'lib, shaxsiy farovonlikka putur yetkazadi.

Shaxsiy o'quv mezonlarini anglash, o'z ehtiyojlarini akademik majburiyatlar bilan muvozanatlash – ayol talabalar uchun asosiy psixologik strategiyalardir. Ularni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar ayniqsa karantin va epidemiya davrlarida dolzarb bo'lib qoladi.

### **Tengdoshlar qo'llab-quvvatlash tizimlari**

Tengdoshlar yordam dasturlari – yangi talabalarni ilgari tajriba orttirgan talabalar bilan bog'laydigan samarali vositadir. Masalan, "Men kabi insonlar" nomli norasmiy mentorlik dasturida har bir ishtirokchi har oy uchrashib, akademik, ijtimoiy va madaniy muammolarni muhokama qiladi.

Bu dasturlar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, emotsiyal salomatlikni qo'llab-quvvatlash va kampus hayotiga faol jalb etish imkonini beradi. Biroq ayol talabalar erkaklarga nisbatan kamroq tengdosh yordamidan foydalanganliklari aniqlangan. Ayniqsa, birinchi bosqich talaba qizlari ijtimoiy va akademik moslashuvda murakkabliklarga duch kelishadi. Shu sababli, ular uchun maxsus kasbiy yo'naltiruvchi dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Yotoqxona uyushmalari ushbu dasturlarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ular xalqaro talaba uylari va boshqa yotoqxona tarmoqlarini qamrab olgan holda to'liq qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani ta'minlaydi. Bu holatda yotoqxona hayoti – ayol talabalarning ijtimoiy salohiyatini ochuvchi va akademik muvaffaqiyatga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardan biriga aylanadi.

### **Akademik qo'llab-quvvatlash tashabbuslari**

Shaxsning ijtimoiy kapitali ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro munosabatlar, aloqalar va uchrashuvlar orqali shakllanadi. Bourdieu'ning kapital nazariyasiga asoslanib aytish mumkinki, turli guruhlarga a'zolik – bu "ijtimoiy kapital"ning shakli sifatida baholanadi. Tarmoq tuzilmasi va ijtimoiy aloqalar – axborot, ishonch, ijtimoiy ta'sir kabi resurslarning manbaidir.

Talabani tadbirlerda qatnashishga undovchi motivatsiya – kutilayotgan foyda va real natijalar o'rtaсидаги нисбатга bog'liq. Agar ishtirokchi doimiy kechiksa yoki faol qatnasha olmasa, ijtimoiy foyda sezilarli darajada kamayadi. Shaxsning ijtimoiy agentligi (agency) – ya'ni, mustaqil harakat va o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati – ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Institut bilan birgalikda shakllangan tarmoqlar doimiy yangilanib turishi zarur. Talabalarga esa, o'z kela-jakdagij ijtimoiy aloqalarini mustaqil ravishda tanlash va shakllantirish imkoniyati berilishi lozim. Aks holda, tor, yopiq va samarasiz tarmoqlar maslahat, yo'naltirish va qo'llab-quvvatlovchi rolini yo'qotadi.



### Ijtimoiy aloqalarni shakllantirishda ixtiyoriylik va imkoniyatlar

Keljakdagi ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirishda shaxsiy agentlikni kuchaytirish, ya'ni o'z ta'sir doirasini kengaytirish – mavjud ijtimoiy aloqalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ammo ayni paytda nechta resurs bu aloqalarni kengaytirishga xizmat qilayotgani noma'lum. Shuningdek, bu aloqalarni shakllantirish sabablari va ularning keyinchalik qanday qo'llanilishi ham aniq emas.

Boshqa guruhlarga qo'shilishdagi to'siqlar – strukturaviy chekllovlar yoki subyektiv rad etish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi talabalar ma'lum guruhlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlar "egallab olingan" deb hisoblanishi. Boshqalar esa mavjud imkoniyatlarni sezsalar-da, ulardan qanday foydalanishni bilishmaydi. Bunday tafovutlarni qanday bartaraf etish mumkinligi hanuzgacha muammoli.

Ijtimoiy kapital tushunchasi xalqaro talabalarni oliy ta'limga integratsiya qilish siyosatida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Agar ijtimoiy himoya, institut resurslari yoki tengdoshlar bilan aloqalarga kirish imkoniyati cheklangan bo'lsa, bu ijtimoiy kapital zaifligiga olib keladi. Demak, ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirish – bu nafaqat qo'llab-quvvatlash, balki imkoniyatlarni ko'paytirish vositasidir.

### Muvaffaqiyatli dasturlar bo'yicha holat tahlillari

Global miqyosda o'quv muassasalari talabalar uchun turar joylar – yotoqxonalar taqdim etadi. Yaxshi tashkil etilgan yotoqxona jamoasi talaba uchun g'amxo'rlik va xavfsizlik muhitini ta'minlab, ijobiy o'quv tajribasini kuchaytiradi. Yotoqxona hayoti – talabaning akademik muvaffaqiyati uchun muhim tashqi omillardan biri sifatida qaraladi.

Mavjud siyosat va amaliyotlar tahlili – ularni takomillashtirish va yangi mexanizmlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Jins, madaniyat, mintaqalari va ta'limga tizimi xususiyatlari yotoqxona dasturlarining mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniy kontekstlarda bir xil metodologiya asosida yotoqxona siyosatlari, amaliyotlari va ayol talabalarga ta'siri o'rganilgan.

Etno-grafik sifatli metodlar (intervyular, fokus-guruhlari, kuzatuvlar, suratlar) yordamida chuqur tahlil o'tkazilan. Yotoqxonada yashovchi ayol talabalar ehtiyojlari ko'pincha gender omili bilan bog'liq ekani aniqlangan. Genderga asoslangan amaliy yondashuvlar yotoqxona tajribasining sifatini oshirishga xizmat qiladi va tenglikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Ayol talabalarning yashash tajribasini o'rganish, ularga xavfsizlik, madaniy mentorlik va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish orqali global miqyosda o'qishdagi farovonlik darajasini oshirish mumkin.

### Shimoliy Amerikadagi dasturlar

Xalqaro talabalar uchun onlayn interaktiv platforma yaratish zarurati mavjud. Bu platforma bir nechta vazifani bajaradi:

1. Xalqaro talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va ular uchun mo'ljallangan dasturlar haqida ma'lumot beradi;
2. Talabalar o'z tajribasi bilan bo'lishib, foydali axborotlar bazasini yaratishga hissa qo'shadi;
3. Talabalar o'zaro maslahat va yo'naltirish orqali bir-biriga yordam beradi.

Ilgari muvaffaqiyatli deb baholangan dasturlar har doim ham barcha talabalar uchun jozibador bo'lavermaydi. Ko'pchilik talaba mavjud dasturlar haqida qanday ma'lumot olishni bilmaydi. Shuning uchun, dasturlarni yaratish bilan birga ularni targ'ib qilish, ommaviy xabardor qilish kampaniyalarini ham olib borish muhimdir.

Universitetlar kam ta'minlangan guruhlari bilan ishlashni ustuvor deb bilsalar, ular mavjud tarmoqlardan samarali foydalanish va yangilarini shakllantirish orqali ta'limga ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga erishishlari mumkin. Ma'muriyat bu dasturlar samaradorligini anglagan sayin, boshqa yo'nalishlarda ham o'xshash tashabbuslarga resurs ajratish ehtimoli oshadi.

### Yevropadagi dasturlar

Xalqaro almashinuvlar, ilmiy tadqiqotlar, o'qituvchilar va olimlar ishtiroki hamda universitetlar o'rtasidagi hamkorlik harakatlari – har qanday davlat oliy ta'limga muassasalari uchun ilmiy va ta'limiyligi salohiyatni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Birlashgan Qirollik misolida, bu kabi almashinuvlar mamlakatda yuqori sifatlari va keng qamrovli oliy ta'limga modelining shakllanishiga ilhom manbai bo'lishi mumkin.

Moslashtirilgan gibrild (onlayn va oflays) kurslar modeli xalqaro talabalar uchun qulay muhit yaratadi hamda ta'limga jarayonining samaradorligini oshiradi. Universitetlarni boshqarish bilan shug'ullanuvchi nazorat organlarining vakolatlari va mas'uliyatlari turliha bo'lib, bu talabalarni qabul qilish siyosatiga bevosita ta'sir qiladi.

Katta to'rtlik (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya) davlatlarining tajribasi tahlil qilinar ekan, sifat va miqdoriy metodlar hamda mos tasniflash asosida oliy ta'limga farqlarning ko'lami aniqlanadi. Miqdoriy farqlar – bu qabul tizimlari, moliyaviy qiyinchiliklar, ta'limga muassasasining nufuzi, joylashuvi, tanlangan yo'nalish va xalqaro hamda mahalliy talabalar nisbati bilan belgilanadi.

A'zolik funksiyalarini tahlil qilish, klasterlash va geotahlil asosida oliy ta'limga tizimidagi umumi tendensiyalar indekslari tuziladi. Shunga qaramay, turli farqlovchi omillarning oliy ta'limga yo'naliishlariga qanday va nima sababdan ta'sir ko'rsatishi bo'yicha tizimli, sifatlari tahlillar yetarli emas.

Buyuk Britaniya misolida, oliy ta'limga yuz berayotgan sezilarli o'zgarishlar alohida o'rganishni talab qiladi. Bunda oliy ta'limga oid xarajatlar va ularning o'zgaruvchanligi bo'yicha ikkilamchi ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda keljakdagi dasturlarni takomillashtirish uchun moslashuvchan boshlang'ich sozlamalar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu borada hali ham chuqur kuzatuvlari va tadqiqotlar talab etiladi.

### Osiyodagi dasturlar

Osiyoda kollej ta'limi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish va barqaror ish bilan ta'minlanishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Shu sababli, ayrim mintaqalarda deyarli barcha o'rta maktab bitiruvchilari kollejga o'qishga kirishmoqda. Ayol talabalar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, ular ta'limga orqali ayniqsa daromad nuqtai nazaridan ko'proq foyda olishmoqda.

Shunga qaramay, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida kollej yoshidagi ayol talabalar ulushi hali ham past bo'lib, rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda sezilarli tafovut mavjud. Bu farq erkaklar o'tasidagi qamrov farqidan ham kengroq.

Shu kontekstda universitet yotoqxonalarining roli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yotoqxonalar talabalarining nafaqat yashash, balki ijtimoiy integratsiya, madaniy muloqot va o'zaro o'rganish tajribasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu ayniqsa past daromadli mamlakatlar uchun dolzARB – u yerda talabalarning tor va zinch muhitda yashash sharoitlarida ijtimoiylashuvi hal qiluvchi omilga aylanadi.

Yotoqxonalar nafaqat turar joy, balki ijtimoiy rivojlanish, madaniy aloqalar va o'zaro tushunishni kuchaytiruvchi muhitdir. Biroq ayol talabalar uchun yotoqxona muhitining aniq ijtimoiy-ta'limi yashash tajribasining rolini, ustuvorliklarini va muammoli omillarni aniqlashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotda kollejga qabul qilingan kundan boshlab tasodifiy tanlangan ayol talabalar guruhida yarim tuzilgan intervyular asosida panel ma'lumotlar to'plangan. Ushbu cohort asosida keyingi bosqichlar uchun yangi ishtirokchilar ham jalg etilgan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon etilganidek, xalqaro talaba qizlar yotoqxonalarda turli muammolarga duch kelmoqda. Eng xavotirli holatlardan biri – RA (Resident Assistant – yotoqxona mas'uli) tomonidan yetarli e'tiborning yo'qligidir. Ayrim universitetlarda erkak RAlar ayol xalqaro talabalarga nisbatan noo'rin xatti-harakatlar – jinsiy bezorilik, odobsiz mavzularda muloqot yoki shaxsiy chegaralarni buzish holatlarini sodir etganliklari qayd etilgan.

RAlarning asosiy vazifasi yotoqxona jamoasini boshqarishdan iborat bo'lsa-da, ular ayniqsa ijtimoiy tadbirlar tashkil etishga intilayotgan xalqaro talabalar uchun ishonchli va do'stona muhit yaratuvchi shaxs sifatida shakllanishi zarur. Ko'plab boshqa muammolar esa madaniy to'siqlar tufayli yuzaga kelmoqda – yaqin do'stlar orttirish, ideal xonadosh tanlash yoki yotoqxona buyumlari bilan bog'liq savdo jarayonlari murakkab kechmoqda.

Yotoqxonadan tashqarida uy ijara olish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, ta'limga muassasasi yoki yotoqxona ma'muriyati bu borada aniq, shaxsga yo'naltirilgan yordam ko'rsatishi lozim. Bunday yondashuv xalqaro talabalar uchun ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi, almashinuv dasturlarining barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi va kampusda ko'p madaniyatli muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayni muammolar, asosan, ayol xalqaro talabalarning shaxsiy hayotiga taalluqlidir. Amaliy, biroq hali to'liq joriy etilmagan takliflar qatorida – kampus siyosatlaridagi noaniqliklar, loqaydlik va murojaatlarga kechiktirilgan javoblar mavjud. Ayniqsa, xalqaro, xususan, xitoylik talabalar masalasida yetarli e'tibor yo'qligi ularning ijtimoiy va akademik rivojlanishida sezilarli cheklowlarga olib kelmoqda.

Masalan, kutilmagan vaziyatlar yoki darsga kechikib kelish siyosati kabi holatlarda xorijiy talabalar – AQSh qonunchiligi yoki madaniyatiga yetarlicha moslashmaganligi sabab – e'tibordan chetda qolmoqda. Yana bir holatda, Rossiya–Ukraina urushi va AQShning yangi siyosiy pozitsiyasi rus talabalarining maqomini noaniq holatga solib qo'ydi. Bu esa ular orasida xavotir va psixologik bosimni kuchaytirdi. Bunday vaziyatlarda zarur izohlar ko'p hollarda kechiktirilib beriladi yoki umuman rad javoblari olinadi.



**Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tolman, S. (2017). The Effects of a Roommate-Pairing Program on International Student Satisfaction and Academic Success.
2. Chong, K. J., & Razek, N. (2014). Feeling Welcome with No "Buts": Chinese Student Engagement in Residence Life.
3. Worsley, D. J., Harrison, P., & Corcoran, R. (2021). Bridging the Gap: Exploring the Unique Transition from Home, School or College into University. [ncbi.nlm.nih.gov](https://www.ncbi.nlm.nih.gov)
4. Schafer, K. P. (2016). Helping Students Achieve Their Goals: The Experience of Working with Students with Mental Health Concerns in a Residence Hall.
5. Shape, R., Hammerschmidt, E., Anderson, J., & Feldman, S. (2016). Perceptions of Safety within Residence Halls at a Midwestern College Campus.
6. Sirin, H., Karasahin, F. E., Tezel, B., Ozbas, S., Keskinkilic, B., & Ozkan, S. (2018). Pilot Scheme Assessment: Health Development Program for Students at Dormitories.
7. Wolcott, G. V. (2016). Supporting the Success of Female Asian American College Students.
8. Le, A. T., LaCost, B. Y., & Wismer, M. (2016). International Female Graduate Students' Experience at a Midwestern University: Sense of Belonging and Identity Development.
9. Montgomery, K. (2017). Supporting Chinese Undergraduate Students in Transition at U.S. Colleges and Universities.

ДОШКОЛ'НОЕ

PRE-SCHOOL

МАКТАБГАЧА

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.